“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=388

2026-yil
9-son
sentabr
ISSN 3093-8546



Tergovga qadar bosqichda protsessual shakl buzilishining empirik tahlili (so‘rovnoma va sud amaliyoti natijalari asosida)

Xislatjon Kukonboyev,
O‘zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi
mustaqil izlanuvchisi
e-mail: hislatjon7@gmail.com

Аннотация. Maqolada tergovga qadar tekshiruv va dastlabki tergov bosqichlarida sodir etilayotgan protsessual shakl buzilishlarining empirik tahlili berilgan. Tadqiqot 13 viloyat va Qoraqalpog‘iston Respublikasi sud amaliyoti (85 436 ish), shuningdek 513 nafar amaliyotchi ishtirokidagi so‘rovnoma natijalariga asoslanadi. Buzilishning asosiy sabablari — ish hajmi ortiqligi (71,2%), kasbiy malaka yetishmasligi (48,1%) va yuqori turuvchi organlar bosimi (40,2%) ekani aniqlandi. Hududiy tafovutlar va ularning sabablari tahlil qilingan.

Калит сўзлар. tergovga qadar tekshiruv, dastlabki tergov, empirik tahlil, so‘rovnoma, hududiy tafovut, sud amaliyoti, statistika.

Аннотация. В статье представлен эмпирический анализ нарушений процессуальной формы, допускаемых на стадиях доследственной проверки и предварительного следствия. Исследование основано на судебной практике 13 областей и Республики Каракалпакстан (85 436 дел), а также на результатах анкетирования 513 практических работников. Установлено, что основными причинами нарушений являются чрезмерная нагрузка (71,2%), недостаточная профессиональная подготовка (48,1%) и давление вышестоящих органов (40,2%). Проанализированы региональные различия и их причины.

Ключевые слова. доследственная проверка, предварительное следствие, эмпирический анализ, анкетирование, региональные различия, судебная практика, статистика.

Annotation. The article presents an empirical analysis of procedural form violations occurring at the pre-investigation inquiry and preliminary investigation stages. The study is based on judicial practice across 13 regions and the Republic of Karakalpakstan (85,436 cases), as well as on a survey of 513 practitioners. The main causes of violations were found to be excessive workload (71.2%), insufficient professional training (48.1%) and pressure from higher authorities (40.2%). Regional disparities and their causes are analysed.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Keywords. pre-investigation inquiry, preliminary investigation, empirical analysis, survey, regional disparity, judicial practice, statistics.

KIRISH

Jinoyat-protsessual shakl buzilishlarining aksariyati aynan tergovga qadar tekshiruv va dastlabki tergov bosqichlarida sodir etiladi. Biroq bu boradagi nazariy xulosalar koʻpincha yetarli empirik asosga ega emas – amaliyotda protsessual shakl buzilishi haqidagi mulohazalar koʻp hollarda alohida keyslar yoki umumiy tasavvurlarga asoslanadi, tizimli statistik tahlil esa yetishmaydi.

Mazkur maqolaning maqsadi – protsessual shakl buzilishining real koʻlamini, uning sabablarini va hududiy xususiyatlarini rasmiy statistika va soʻrovnoma natijalari orqali xolis baholashdan iborat. Tadqiqot vazifalariga quyidagilar kiradi: sud amaliyotining koʻp yillik statistikasini tahlil qilish; hududlar boʻyicha tafovutlarni aniqlash; amaliyotchilar soʻrovnomasi orqali buzilish sabablarini aniqlash; olingan natijalar asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot metodologiyasi kompleks xarakterga ega boʻlib, statistik tahlil usuli, soʻrovnoma (anketa) usuli, keys-stadi usuli hamda qiyosiy-huquqiy tahlil usullarining uygʻunlashgan qoʻllanilishiga asoslanadi. Bunday koʻp qirrali yondashuv empirik natijalarning ishonchliligini oshiradi va turli manbalardan olingan ma'lumotlarni oʻzaro solishtirish imkonini beradi.

ASOSIY QISM

1. Sud amaliyotining statistik tahlili

Tadqiqot doirasida 2022–2025-yillar mobaynida Oʻzbekiston Respublikasining barcha 13 viloyati va Qoraqalpogʻiston Respublikasi sudlari tomonidan yuritilgan jami 85 436 ta jinoyat ishi tahlil qilindi [1]. Ushbu ishlar boʻyicha 121 nafar shaxs oqlangan boʻlib, shundan 39 nafari (32,2%) tergov davomida qamoqda saqlangan. Bu JPKning 416–417-moddalari tartibida chiqarilgan 368 ta ajrim bilan birga, tergov bosqichidagi protsessual shakl buzilishining real koʻlamini koʻrsatadi [2].

Hududiy tafovutlar tahlili shuni koʻrsatdiki, tamomlangan ishlar koʻrsatkichi boʻyicha keskin farq mavjud: Toshkent shahrida eng past (60,4%), Navoiy viloyatida esa (71,1%) koʻrsatkich qayd etilgan. Bunday tafovutning asosiy sababi – kadrlar malakasi va nazorat mexanizmlaridagi farqlar hisoblanadi. Xususiy ajrimlar tahlili ham shunga oʻxshash manzarani koʻrsatadi: Navoiy viloyatida 69 ta, Sirdaryo viloyatida 33 ta, Buxoro viloyatida esa 9 ta xususiy ajrim chiqarilgan – bunda Navoiy viloyatidagi 69 ta ajrimning 23 tasi “JPK talablari buzilganligi”, 24 tasi “qilmish notoʻgʻri malakalanganligi” sababli chiqarilgan.

2. Keys-stadi usulida chuqur tahlil

Statistik tahlilni aniq misollar bilan boyitish maqsadida dissertatsiya doirasida sakkizta keys-stadi usulida tahlil oʻtkazildi. Xususan, Fargʻona viloyatida ayblanuvchi S.Oʻ.ga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chora qoʻllash haqidagi iltimosnoma jinoyat ishlari boʻyicha Qoʻqon shahar sudi tomonidan

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

koʻrib chiqilib, iltimosnoma qanoatlantirilgan boʻlsa-da, himoya tarafining shikoyati asosida Fargʻona viloyati sudi jinoyat ishlari boʻyicha sudlov hay'ati tomonidan koʻrib chiqilib, JPKning 51-moddasida nazarda tutilgan himoyachining ishtiroki majburiyligi talabiga rioya etmasdan himoyachi ishtirokisiz qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chora qoʻllanilgani sababli, tegishli sud ajrimi bekor qilingan [3].

Namangan viloyatida esa 2021-yil jinoyat ishi boʻyicha M.X. JKning 168-moddasi toʻrtinchi qismi “a” bandi asosida qamoq jazosiga hukm qilingan boʻlsa-da, apellyatsiya instansiyasi sudi tomonidan jinoyat-protsessual qonunchilikning jiddiy buzilgani sababli hukm oʻzgartirilgan – bu misol “jiddiy buzilish” toifasining amaliyotdagi aniq koʻrinishini namoyon etadi [4]. Ushbu keyslar shuni koʻrsatadiki, protsessual shakl buzilishi koʻpincha yalpi, tizimli xarakterga ega boʻlmay, balki muayyan xodimning kasbiy tayyorgarligi yoki ish yuklamasi bilan bogʻliq boʻladi.

3. Soʻrovnoma natijalarining tahlili

Empirik tahlilni chuqurlashtirish maqsadida dissertatsiya doirasida 513 nafar respondent (sudya – 24,8%, prokuror – 4,1%, advokat – 25,0%, tergovchi/surishtiruvchi – 41,9%, ilmiy xodim – 4,3%) ishtirokida soʻrovnoma oʻtkazildi. Respondentlarning 65,5 foizi protsessual shakl buzilishi eng koʻp tergovga qadar tekshiruv va jinoyat ishi qoʻzgʻatish bosqichida sodir boʻlishini, 28,8 foizi esa dastlabki tergov bosqichini koʻrsatdi [5]. Buzilishning sabablari haqidagi savolga (bir nechta javob tanlash imkoni bilan) eng koʻp takrorlangan javob – tergovchi va surishtiruvchilarning ish hajmi ortiqligi boʻlib, buni 71,2 foiz respondent qayd etdi. Undan keyin kasbiy malaka yetishmasligi (48,1%), yuqori turuvchi organlar tomonidan koʻrsatkichlar uchun bosim (40,2%) va qonun normalarining noaniqligi (24,0%) keldi.

Tergovchi va surishtiruvchilar orasida alohida oʻtkazilgan ikkinchi soʻrovnoma (136 nafar respondent) shuni koʻrsatdiki, kasbiy faoliyatda hissiy charchoqni har kuni yoki har hafta his qilish holati 77 foizda uchraydi, shuningdek 65 foiz respondent ish staji hissiy holat va kasbiy deformatsiyaga ta'sir qilishini tasdiqladi [6]. Kasbiy deformatsiyaning eng koʻp uchraydigan koʻrinishlari sifatida befarqlik (30%), his-tuygʻularni yashirish (27%) va ortiqcha qattiqqoʻllik (25%) koʻrsatildi. Ushbu ma'lumotlar “ish hajmi ortiqligi” nafaqat statistik koʻrsatkich, balki xodimlarning psixologik holatiga ham bevosita ta'sir qiluvchi omil ekanini koʻrsatadi. Bu esa O.V.Ximicheva tomonidan ilgari surilgan, sudgacha boʻlgan ishlar yurituvida inson omilining hal qiluvchi ahamiyatga ega ekani haqidagi gʻoyani amaliy jihatdan tasdiqlaydi [7].

4. Olingan natijalarning amaliy ahamiyati

Olingan empirik natijalar tergovga qadar bosqichda protsessual shakl buzilishining oldini olish chora-tadbirlari – jumladan, shtat sonini ish hajmiga mutanosib ravishda belgilash, muntazam kasbiy tayyorgarlik va prokuror monitoringini kuchaytirish zaruratini asoslaydi. Shuningdek, hududiy tafovutlarning aniqlanishi, oldini

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

olish chora-tadbirlarining barcha hududlarda bir xilda emas, balki har bir hududning o‘ziga xos ehtiyojlarini hisobga olgan holda, differensiallashtirilgan tarzda rejalashtirilishi zarurligini ko‘rsatadi. Xususan, chekka viloyatlarda kadrlar malakasini oshirish dasturlariga, markaziy viloyatlarda esa ish yuklamasini qayta taqsimlashga ustuvorlik berilishi maqsadga muvofiqdir.

5. Yillar bo‘yicha dinamika tahlili

Tadqiqot doirasida 2020–2024-yillar mobaynida kuzatilgan dinamika ham alohida e'tiborga molik. Rasmiy statistikaga ko‘ra, 2020-yilda respublika bo‘yicha jami 3 434 nafar shaxs sud zalidan ozod qilingan bo‘lsa, 2024-yilga kelib bu ko‘rsatkich 7 956 nafarni tashkil etdi – bu ko‘rsatkich 131,7 foizga oshganini anglatadi. Oqlov hukmlari bo‘yicha esa tendensiya yanada keskinroq: 2017-yilda atigi 263 nafar shaxs oqlangan bo‘lsa, 2024-yilga kelib bu ko‘rsatkich 723 tani tashkil etib, 174,9 foizga oshgan. Ushbu dinamika, bir tomondan, sudlarning mustaqilligi va himoya huquqining kuchayganidan dalolat bersa, boshqa tomondan, tergovga qadar bosqichda yo‘l qo‘yilayotgan xatolarning soni ham ortib borayotganini ko‘rsatadi.

Yillik dinamikani hududlar kesimida tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, JPK normalari jiddiy buzilgani sababli sud qarorlari bekor qilingan ishlar soni ham yildan-yilga o‘zgaruvchan xarakterga ega: 2023-yilda Namangan viloyatida 1 ta, Qoraqalpog‘iston Respublikasida 3 ta, Buxoro viloyatida 4 ta; 2024-yilda Samarqand viloyatida 2 ta, Surxondaryo viloyatida 2 ta, Qoraqalpog‘iston Respublikasida 2 ta, Toshkent shahrida 1 ta; 2025-yilda esa Navoiy viloyatida 1 ta, Surxondaryo viloyatida 2 ta, Farg‘ona viloyatida 1 ta ish bo‘yicha sud qarorlari bekor qilingan. Ushbu ko‘rsatkichlarning hududlar bo‘yicha bir tekis tarqalmaganligi, chekka hududlarda resurslar tanqisligi, kadrlar malakasining pastligi va nazoratning zaifligi bilan izohlanadi.

6. Xorijiy tajriba bilan qiyosiy tahlil

Olingan empirik natijalarni xorijiy tajriba bilan qiyoslash alohida ahamiyatga ega. Buyuk Britaniyada 1984-yilda qabul qilingan PACE qonuniga muvofiq tergov so‘roqlarini majburiy ravishda audio/videoyozuvga olish joriy etilgandan so‘ng, o‘n yil ichida tergov shikoyatlari oltmish foizga kamaygan. Qozog‘iston Respublikasida esa videoyozuv tizimi joriy etilgandan so‘ng tergov shikoyatlari qirq uch foizga kamaygan. Mazkur xorijiy tajriba, dissertatsiya doirasida to‘plangan empirik ma'lumotlar bilan birga, tergovga qadar bosqichda raqamli nazorat vositalarini joriy etishning amaliy samaradorligini tasdiqlaydi.

XULOSA

O‘tkazilgan empirik tadqiqot tergovga qadar bosqichda protsessual shakl buzilishining asosiy sabablari – ish hajmi ortiqligi, kasbiy malaka yetishmasligi va idoraviy bosim ekani, shuningdek bu buzilishlarning hududlar bo‘yicha bir xilda tarqalmaganini ko‘rsatdi. Keys-stadi usulida o‘tkazilgan chuqur tahlil statistik ko‘rsatkichlarni aniq misollar bilan tasdiqladi. Aniqlangan xulosalar

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

nazariy tavsiflardan farqli oʻlaroq, aniq raqamlarga asoslangan holda, oldini olish chora-tadbirlarini maqsadli rejalashtirishga imkon beradi.

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, tergovga qadar bosqichda protsessual shakl buzilishining oldini olish faqat normativ oʻzgartishlar bilan cheklanib qolmasdan, kadrlar siyosati, xodimlarning psixologik holati va hududiy ehtiyojlarni hisobga olgan kompleks yondashuvni talab etadi. Kelgusida tadqiqotlarda ushbu empirik maʼlumotlar asosida har bir viloyat uchun alohida “xatar xaritasi” (risk map) tuzish va monitoring tizimini joriy etish imkoniyatlari chuqur oʻrganilishi maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy sudi maʼlumotnomasi “Jinoyat ishi boʻyicha dastlabki eshituv institutini qoʻllanilishi va uni takomillashtirish yuzasidan” (2021–2024-yillar statistikasi). – Toshkent, 2025.

2. Ichki ishlar vazirligi tergov boshqarmasining faoliyat hisobotlaridan (2021–2024 yy.). – Toshkent, 2025.

3. Oʻsha asar. – B. 96–100 (1-keys: Fargʻona viloyati sud amaliyoti misoli).

4. Kukonboyev X.M. Koʻrsatilgan asar. – B. 105–109 (2-keys: Namangan viloyati sud amaliyoti misoli).

5. Oʻsha asar. – B. 130–139 (umumiy soʻrovnoma natijalari, n=513).

6. Oʻsha asar. – B. 140–141 (tergovchi va surishtiruvchilar soʻrovnomasi, n=136).

7. Ximicheva O.V. Dosudebnoye proizvodstvo po ugolovnым delam: konseptualnыe osnovы i pravovoye regulirovaniye. – M.: YUNITI-DANA, 2004. – S. 112.